

O'ZBEKISTONDA ISTE'MOL BOZORI XUSUSIYATLARI

To'lqinova Diyora Tal'atjon qizi

Diplomat University

1-kurs talabasi

E-mail: tolqinovadiyora00@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasidagi iste'mol bozori holati, uning rivojlanish tendensiyalari hamda asosiy tarkibiy qismlari tahlil qilinadi. Iste'mol bozorining shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar, aholining xarid qobiliyati, narxlar darajasi va mahsulot turlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yoritib beriladi. Shuningdek, hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning iste'mol bozori rivojiga ta'siri ham ko'rib chiqilgan. Ishda statistik ma'lumotlar, grafiklar va amaliy misollar asosida bugungi kundagi holat tahlil qilinib, muammolar va ularni hal etish yo'llari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: istemol bozori, chakana savdo, ulgurji savdo, bozor infratuzilmasini erkinlashtirish, raqamli transformatsiya.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется состояние потребительского рынка Республики Узбекистан, тенденции его развития и основные структурные компоненты. Освещаются факторы, влияющие на формирование потребительского рынка, покупательная способность населения, уровень цен и взаимосвязь между различными видами продукции. Также рассматривается влияние экономических реформ, проводимых правительством, на развитие потребительского рынка. В статье текущая ситуация анализируется на основе статистических данных, графиков и практических примеров, предлагаются пути решения существующих проблем. Исследование будет полезно для экономистов, студентов и широкой аудитории, интересующейся данной темой.

Ключевые слова: потребительский рынок, розничная торговля, оптовая торговля, либерализация рыночной инфраструктуры, цифровая трансформация

ABSTRACT

This article analyzes the condition of the consumer market in the Republic of Uzbekistan, its development trends, and main structural components. It highlights the factors influencing the formation of the consumer market, the purchasing power of

the population, the price level, and the interrelationship between different types of goods. The impact of government-implemented economic reforms on the development of the consumer market is also examined. The article assesses the current state using statistical data, charts, and practical examples, and proposes solutions to existing problems. The study is useful for economists, students, and a broad audience interested in the subject.

Keywords: consumer market, retail, wholesale, liberalization of market infrastructure, digital transformation

KIRISH

Jamiyat hayoti uchun zarur mahsulotlarga bo‘lgan talabni qondirish har qanday davlat uchun muhim masala va aholi farovonligining asosi hisoblanadi. Shu bois iste'mol tovarlari bozorini shakllantirish va uning rivojlanishi bo‘yicha muammolarga jiddiy yondashuv talab etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “davlatning innovatsion yangilanish dasturini shakllantirish, innovatsiya va investitsiyalardan samarali foydalanadigan yangi avlod kadrlarini, yangi sarmoyadorlar sinfini tayyorlash o‘ta muhim ahamiyatga ega. Buning uchun O‘zbekistonni texnologik rivojlantirish va ichki bozorni modernizatsiya qilish bo‘yicha kuchli milliy g‘oya va milliy dastur kerak. Ushbu dastur O‘zbekistonni jahondagi taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga tezroq olib chiqishga imkon yaratishi lozim. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi va uning narxini belgilash amaliyotini butunlay qayta ko‘rib chiqib, bozor tamoyillarini joriy etish zarurligi muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab berildi. Murojaatnomada belgilab berilgan ustuvor vazifalarni hal etishda shahar va qishloqlarimiz iste'mol tovarlari bozorini tartibga solishimiz, bozorni iste'molchilar hukmronligini ta'minlashga qaratilgan izchil islohotlarni amalga oshirishimiz hamda bu borada maqsadli marketing strategiyalarini ishlab chiqish masalasi o‘ta dolzarb hisoblanadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan mamlakatda iste'mol tovarlari bozorining holatini tahlil etish va istiqboldagi o‘zgarishlarini aniqlash masalalari o‘ta muhim masalalar qatorida turibdi.

Adabiyotlar tahlili. Iste'mol bozori iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan talab, ularning narxlari, sifat ko‘rsatkichlari hamda aholining iste'mol madaniyati kabi omillar bilan belgilanadi. Kotler F.ning "Marketing asoslari" asarida iste'molchilarning harakat motivlari, tovar tanlashdagi xulq-atvori va psixologik omillarning bozordagi ahamiyati batafsil yoritilgan. Ushbu nazariy yondashuvlar O‘zbekiston sharoitida iste'mol bozori tahlilida muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

X. Xolxo‘jayev, M. Normurodov kabi iqtisodchilar O‘zbekistonda iste’mol bozori transformatsiyasi jarayonlarini o‘rganib, bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida iste’mol madaniyatining o‘zgarishini tahlil qilgan. “Iqtisodiyot” darsliklarida iste’mol bozori infratuzilmasi, aholining daromad darajasi, hududiy nomutanosibliklar va narx dinamikasi asosiy mavzular sifatida yoritilgan.

Statistika qo‘mitasi hisobotlari asosida olib borilgan tahlillar iste’mol bozorining turli segmentlarida (oziq-ovqat, sanoat mahsulotlari, xizmatlar) talab va taklif muvozanatini o‘rganishga yordam beradi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – O‘zbekistondagi iste’mol bozori rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini aniqlash, unga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish, mavjud muammolarni yoritish va ularning yechimlariga oid ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Shu munosabat bilan tadqiqot davomida statistik ma’lumotlardan, amaliy misollardan, grafik tahlil usullaridan hamda komparativ yondashuvdan foydalilaniladi. Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasining iste’mol bozori tizimi, predmeti sifatida esa uning tarkibiy tuzilmasi, narxlar dinamikasi, aholining xarid qobiliyati hamda davlat siyosatining ushbu sohaga ta’siri tahlil etiladi. Ish natijalari ilmiy hamjamiyat, iqtisodchi mutaxassislar, amaliyotchi tadbirkorlar va iqtisodiy sohada ta’lim olayotgan talabalar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda olib borilgan iqtisodiy islohotlar, xususan, bozor infratuzilmasini erkinlashtirish, tashqi savdo rejimining soddalashtirilishi va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash orqali iste’mol bozori sezilarli darajada rivojlandi.

1-jadval

2020–2024 yillarda O‘zbekistonning chakana savdo aylanmasi

Ko’rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
Chakana savdo aylanmasi (trln so‘m)	260	300	340	375	410
Aholi jon boshiga iste’mol xarajatlari (ming so‘m)	7200	8100	9300	10500	11700
Elektron savdo ulushi (%)	5,2	6,8	8,5	10,3	12
Mahalliy mahsulotlar ulushi (%)	62	65	68	70	73
Narxlar indeksi (yillik o‘sish, %)	11,7	10,5	12,3	9,8	8,6

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2020–2024 yillar davomida chakana savdo aylanmasi yildan-yilga o‘sib, 2024-yilda 400 trln so‘mdan oshdi, bu 2020-yilga nisbatan qariyb 1,5 baravar ko‘pdir. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol xarajatlari ham o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Bu, bir tomonidan,

aholining real daromadlari oshgani, ikkinchi tomondan esa, iste'mol talabining kengayganini ko'rsatadi. Mahsulot turlarining diversifikatsiyasi, mahalliy ishlab chiqaruvchilar ulushining ortishi va logistika tizimining takomillashuvi iste'molchilarga keng tanlov imkoniyatini yaratdi.

Ayni paytda, ayrim hududlarda narxlar barqarorligi va mahsulot yetkazib berishdagi uzilishlar muammoli bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari segmentida mavsumiy narx tebranishlari iste'molchilar xarajatlarida beqarorlik keltirib chiqarmoqda. Biroq, narxlarni barqarorlashtirish bo'yicha hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, xususan, zaxira fondlarini shakllantirish va importni vaqtincha rag'batlantirish siyosati ijobiy natija bermoqda. Shuningdek, elektron savdo va raqamli to'lov tizimlarining jadal rivojlanishi iste'mol bozori tuzilmasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. 2024-yil yakunlariga ko'ra, onlayn savdoning umumiy chakana savdo hajmidagi ulushi 12% ga yetdi, bu esa bozorda raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallahsganini ko'rsatadi.

O'zbekistonda iste'mol bozori so'nggi yillarda jadal rivojlanib, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos shakllanmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, chakana savdo aylanmasining yildan-yilga o'sishi, elektron savdoning ulushi ortib borayotgani va aholining xarid qobiliyatining yaxshilanishi bozordagi talab va taklif o'rtasida nisbiy muvozanat shakllanayotganidan dalolat beradi. Biroq, bu ijobiy ko'rsatkichlarga qaramay, ayrim tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, narxlar barqarorligi hali ham mavsumiylik va tashqi omillarga yuqori darajada bog'liq. Mamlakat ichidagi logistika zanjirlarining yetarli darajada rivojlanmagani, ayniqsa qishloq xo'jaligi mahsulotlari ta'minotida muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli ayrim hududlarda narx tafovutlari saqlanib qolmoqda, bu esa aholining ijtimoiy tengligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, iste'mol bozori raqamli transformatsiya bosqichida bo'lsa-da, elektron savdo infratuzilmasi barcha hududlarda bir xil darajada rivojlanmagan.

Yirik shaharlarda internet-savdo keng quloch yozayotgan bo'lsa-da, qishloq joylarda bu imkoniyatlar cheklangan. Bu esa bozorning inklyuziv rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ulushi oshayotgan bo'lsa-da, mahsulot sifati va standartlarga muvofiqlik masalasi ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha mavjud mexanizmlarni takomillashtirish ham bozor barqarorligi uchun zarur omildir. Shuningdek, iqtisodiy islohotlarning iste'mol bozori rivojiga ta'siri ijobiy baholansa-da, ularning uzoq muddatli natijadorligi tegishli institutsional tizimlarning mustahkamlanishiga bevosita bog'liq. Soliq imtiyozlari, subsidiyalar va kreditlar orqali bozorga ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlov choralarining samaradorligi chuqr monitoring va

tahlilga muhtoj. Shu bois, kelgusida iste'mol bozorini yanada barqaror va raqobatbardosh qilish uchun tizimli va kompleks yondashuv talab etiladi. Har bir tarkibiy bo‘g‘in – ishlab chiqarish, taqsimot, savdo va iste'mol — o‘zaro muvofiqlashtirilgan holda isloh qilinishi lozim.

2-jadval

2024-yilda O‘zbekistonning ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi

Ko‘rsatkichlar	
Ulgurji savdo tovar aylanmasi (mlrd. so‘m)	247099,5
O‘sish sur’ati (2023-yilga nisbatan, %)	109,9
Yirik korxonalar ulushi (%)	31,1
Yirik korxonalar savdo hajmi (mlrd. so‘m)	76829,2
Olmazor tumani ulushi (%)	13,4
Yashnobod tumani ulushi (%)	12,4
Yangihayot tumani ulushi (%)	2,7
Bektemir tumani ulushi (%)	1,7

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

2024-yilda ulgurji savdo tovar aylanmasi 247 099,5 mlrd. so‘mni yoki 2023-yilning shu davriga nisbatan 109,9 % ni tashkil qildi. Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 31,1 % ga teng bo‘lib, hajmi 76 829,2 mlrd. so‘mni tashkil etganini ko‘rish mumkin. Xususan, ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo‘lgan Olmazor tumani 13,4 %, Yashnobod tumani 12,4 % ni tashkil etgan bo‘lsa, Yangihayot tumani 2,7 % va Bektemir tumani 1,7 % ulush bilan eng past ko‘rsatkichni qayd etdi.

TAKLIF VA XULOSALAR

2024-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida ulgurji savdo tovar aylanmasi 247,1 trillion so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 9,9 foizga o‘sdi. Ushbu ko‘rsatkich respublika savdo sektorida iqtisodiy faoliyikning ortib borayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, yirik korxonalar ulgurji savdodagi ulushining 31,1 foizni tashkil etgani ulkan ishlab chiqaruvchilar va distribuyutorlar o‘rtasidagi faol hamkorlikni aks ettiradi. Hududiy tahlillar ulgurji savdoning markazlashganligini ko‘rsatadi. Jumladan, Toshkent shahrining Olmazor (13,4%) va Yashnobod (12,4%) tumanlari ulgurji savdo hajmida yetakchi pozitsiyalarni egallab kelmoqda. Bu esa ushbu hududlarda savdo-logistika infratuzilmasining yuqori darajada rivojlanganini va iqtisodiy markaz sifatida ularning strategik ahamiyatini ko‘rsatadi. Aksincha, Yangihayot (2,7%) va Bektemir (1,7%) tumanlaridagi ulush past bo‘lib, bu hududlarda ulgurji savdo faoliyatining rivojlanish imkoniyatlari to‘liq amalga oshirilmaganini anglatadi. Ushbu ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki,

O‘zbekistonda ulgurji savdo bozori barqaror o‘sib bormoqda. Shu bilan birga, hududlararo tafovutlarni kamaytirish, yirik korxonalar bilan bir qatorda kichik va o‘rta biznes sub’yektlarini ham bozorga faolroq jalb etish orqali savdo sohasining yanada inklyuziv va muvozanatli rivojlanishini ta’minlash zarur. Bu esa nafaqat iqtisodiy o‘sishga, balki regional tenglik va bandlik darajasining oshishiga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics. (2024). Statistical indicators. Retrieved from <https://www.stat.uz>
2. Mirzayev, U. M. (2021). Consumer Market and its Development Trends. Tashkent: Iqtisodiyot Publishing House.
3. Saidov, A. Kh. (2022). Macroeconomics. Tashkent: Fan va Texnologiya.
4. President of the Republic of Uzbekistan. (2022). Decree No. PQ-232 on Measures to Ensure Stable Supply of Domestic Market and Food Security. Tashkent.
5. International Monetary Fund. (2023). World Economic Outlook: Economic Recovery Post-COVID. Washington, DC.
6. World Bank. (2023). Uzbekistan Country Economic Memorandum: Structural Transformation for Inclusive Growth. Washington, DC.